

**O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI XAVFLAR
QO'MITASINING 2026 YIL 1-YARIM YILLIGI BO'YICHA
HISOBOTI**

1. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi **“Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi **PF-100**-son farmonining **3.1-bandi** va 2-ilovasining **12.2-bandlari** ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining **2024-yil 13-dekabr**dagi **75-sonli buyrug'i** bilan **“Xavflarni boshqarish qo'mitasi”** tashkil etildi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Hisob-palatasiga yozma axborot berilgan (*Hujjat kodi SX90982426, 16.12.2024y, №02-20-3492-son*).

Jumladan, Qo'mita Raisi Jumanazarov Akmal Ro'ziqulovich boshchiligidan, uning rais o'rinbosari Abdukayumov Abdurauf Abdurashidovich, a'zolari Raximov Qosimjon Rasulovich, Otamirzaeva Dilfuza Abduvalievna, Karimov Shuxrat Furqatovich, Haydarov G'ulomboy Tursunboevichdan iborat a'zolari tuzilgan.

Shuningdek, **“Xavflarni boshqarish”** qo'mitasining **asosiy vazifalari** etib quyidagilar belgilangan:

- *ichki audit xizmati tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko'rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog'liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro'yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta'minlash;*

- *davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash hamda aniqlangan xavflarni bartaraf etish;*

- *xavflarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ichki audit xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish;*

- *har chorak yakuni bo'yicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan ichki audit xizmati tomonidan amalga oshirilgan ishlarni atroflicha muhokama qilish;*

- *normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etish, tegishli normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;*

- *xavflarning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.*

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2025-yil 29-apreldagi “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi **VM-279-son** qarori amaliyotga keng joriy qilindi hamda unga ko'ra **“Xavflarni boshqarish qo'mitasi”**ni **Nizomi va tarkibi takomillashtirildi** (*Hujjat kodi FR73273488, 18.07.2025y, №80-sonli buyruq*).

Jumladan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining “Xavflarni boshqarish” qo'mitasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, O'zbekiston texnik jihatdan

tartibga solish agentligining “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom 2-ilovaga muvofiq yangilangan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 10-iyuldagi “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100**-sonli farmoni doirasida Agentlikning **2025 yil uchun nazorat rejasi** tuzilib, unda **xavflarni aniqlash, ro‘yxatini (reestri) tuzish, baholash, chora-tadbir rejasini ishlab chiqish va har chorakda monitoring qilish** belgilangan (**Hujjat kodi BL48762766, 07.02.2025 y).**

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»** 2024 yil 10 iyuldagi **PF-100**-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda uning samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 16 iyuldagi 446-sonli qaroriga 1-ilova **“2025 - 2027 yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiya”**si ishlab chiqilgan.

Shunga ko‘ra, **Agentlikning 2025-yil 10-dekabrdagi 52-sonli yig‘ilish** bayoniga ilova **“Yo‘l xaritasi”** ishlab chiqildi va unda **29 ta chora-tadbir** doirasida **42 turdagi vazifalar** belgilab olingan va ular bo‘yicha qo‘yidagilar amalga oshirilgan:

Jumladan, Nazorat jarayonini amalga oshiruvchi xodimlarning o‘z vazifa va majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalariga egaligini baholash mexanizmlarini (KPI) joriy etilgan.

Nazorat tuzilmalari (Xavflarni boshqarish qo‘mitasi, Odob-axloq komissiyasi va boshqalar) tarkibigavazifalarning bevosita ijrochilaridan mustaqil a‘zolarning kiritilishini ta‘minlangan.

Xazira kadrlarni shakllantirish tizimini yo‘lga qo‘yilgan.

Xavflarni boshqarish qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomi tasdiqlangan.

Xavflarni boshqarish qo‘mitasi yig‘ilishi o‘tkazib borilgan.

Xavflarni boshqarish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarbo‘yicha hisobot tayyorlandi va tasdiqlangan.

Tarkibiy bo‘linmalar tomonidan xavflarni aniqlash, baholash va xavflar reestrini shakllantirish ishlari tashkil etilgan.

Xavflarni boshqarish qo‘mitasi har yili 1 fevralga qadar ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etilgan.

Ichki nazorat tizimini muvofiqlashtirish, tegishli ma‘lumotlarni jamlash va tahlil qilish hamda manfaatdor tomonlarga ichki nazorat tizimi bo‘yicha hisobot taqdim etishni amalga oshiruvchi ichki nazorat koordinatorini belgilangan.

5. **Agentlik Xavflar qo‘mitasi**ning **2026 yil 29-yanvardagi 8-sonli yig‘ilish** bayoni bo‘yicha qo‘yidagilar muhokama qilingan edi.

Agentlik va tizim tashkilotlaridagi tarkibiy bo'linmalar va ularning faoliyati bilan bog'liq asosiy vazifa va funksiyalar bo'yicha jami 263 ta xavflar aniqlangan bo'lib, ularni reestri tuzilgan(1-ilova).

Jumladan, aniqlangan xavflar reestridan 190 tasi Agentlik, 17 tasi “O‘zbekiston milliy metrlogiya instituti” DM, 16 tasi “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorat markazi” davlat muassasasi, 15 tasi “O‘zbekiston standartlar instituti” davlat muassasasi, 14 tasi “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat muassasasi va 11 tasi Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi hisobiga to‘g‘ri kelgan;

Xavflar reestri, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-sonli qaroriga ko‘ra 1-ilova **“Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi to‘g‘risida”**gi Nizom doirasida dastlabki baholashdan o‘tkazilgan va xavflarni (yuqori va o‘rta) kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan (2-ilova);

Jumladan, Jumladan, baholangan xavflar reestrini 60 tasi (yoki 23 %) yuqori xavflar, 149 tasi (yoki 57 %) o‘rta xavflar va 54 tasi (yoki 20 %) past xavflardan iborat.

6. Agentlik Xavflar qo‘mitasining 2026 yil 23-iyuldagi 54-sonli yig‘ilish bayoni bo'yicha qo'yidagilar muhokama qilindi.

Agentlik va tizim tashkilotlaridagi tarkibiy bo'linmalar va ularning faoliyati bilan bog'liq asosiy vazifa va funksiyalar bo'yicha jami 274 ta xavflar aniqlangan bo'lib, ularni reestri tuzilgan(1-ilova).

Jumladan, aniqlangan xavflar reestridan 195 tasi Agentlik, 17 tasi “O‘zbekiston milliy metrlogiya instituti” DM, 19 tasi “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorat markazi” davlat muassasasi, 18 tasi “O‘zbekiston standartlar instituti” davlat muassasasi, 14 tasi “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat muassasasi va 11 tasi Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi hisobiga to‘g‘ri kelgan;

Xavflar reestri, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-sonli qaroriga ko‘ra 1-ilova **“Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi to‘g‘risida”**gi Nizom doirasida dastlabki monitoring baholashdan o‘tkazilgan va xavflarni (yuqori va o‘rta) kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan (2-ilova);

Jumladan, Jumladan, baholangan xavflar reestrini 106 tasi (yoki 39 %) yuqori xavflar, 78 tasi (yoki 28 %) o‘rta xavflar va 90 tasi (yoki 33 %) past xavflardan iborat.